Ubaydova Vazira Erkinovna (Buxoro davlat Texnika universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD); amikomjon@mail.ru)

TA'LIM TIZIMIDA SUFIY PEDAGOGIKANING TUTGAN O'RNI VA TARIXI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta'lim tizimida sufiy pedagogikasining shakllanishi, uning tarixiy ildizlari, rivojlanish bosqichlari va zamonaviy ta'lim jarayoniga ko'rsatgan ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tasavvuf oqimlari, xususan, Naqshbandiya, Yassaviya, Kubraviya va Qodiriya tariqatlari tomonidan shakllantirilgan tarbiyaviy tamoyillar sharqona ta'lim va tarbiya tizimida muhim o'rin tutgani ilmiy dalillar asosida yoritilgan. Maqolada sufiy pedagogikasining ma'naviy poklanish, komillikka intilish, ijtimoiy mas'uliyat, axloqiy-ruhiy tarbiya, murabbiy-murid munosabatlari, shaxsning ichki imkoniyatlarini ochish kabi tamoyillari bugungi zamonaviy pedagogik jarayon bilan solishtiriladi. Tadqiqot natijalari sufiy pedagogikasining hozirgi ta'lim tizimi uchun metodik, ma'naviy va tarbiyaviy jihatdan asoslanadigan boy manba ekanini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *sufiylik, tasavvuf, sufiy pedagogika, Naqshbandiya, Yassaviya, ma'naviy tarbiya, komillik, axloqshunoslik, pedagogik g'oyalar, sharq ma'rifati.*

Убайдова Вазира Эркиновна (доцент Бухарского государственного технического университета, доктор философии по педагогическим наукам (PhD); amikomjon@mail.ru)

РОЛЬ И ИСТОРИЯ СУФИЙСКОЙ ПЕДАГОГИКИ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *В данной статье научно-теоретически проанализированы формирование суфийской педагогики в системе образования, её исторические корни, этапы развития и влияние на современный образовательный процесс. Показано, что воспитательные принципы, сформированные суфийскими течениями, в частности, тарикатами Накшбандия, Ясавия, Кубравия и Кадирия, занимают важное место в восточной системе обучения и воспитания. В статье сопоставлены основные положения суфийской педагогики – духовное очищение, стремление к совершенству, социальная ответственность, нравственно-духовное воспитание, отношения «мураббий–мурид», раскрытие внутренних возможностей личности–с современными педагогическими подходами. Результаты исследования показывают, что суфийская педагогика является богатым методическим, духовным и воспитательным ресурсом для современной системы образования.*

Ключевые слова: *суфизм, тасаввуф, суфийская педагогика, Накшбандия, Ясавия, духовное воспитание, совершенствование, этика, педагогические идеи, восточное просвещение.*

Ubaydova Vazira Erkinovna (Associate Professor, Department of Bukhara State Technical University, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences; amikomjon@mail.ru)

THE ROLE AND HISTORY OF SUFI PEDAGOGY IN THE EDUCATION SYSTEM

Annotation. *This article provides a scientific and theoretical analysis of the formation of Sufi pedagogy within the education system, exploring its historical roots, stages of development, and its influence on contemporary educational processes. The study highlights that the educational principles shaped by Sufi orders–particularly Naqshbandiyya, Yasawiyya, Kubrawiyya, and Qadiriyya–hold a significant place in the traditional Eastern system of education and upbringing. The core concepts of Sufi pedagogy, such as spiritual purification, pursuit of perfection, social responsibility, moral and spiritual education, murabbi-murid relations, and the development of an individual's inner potential, are compared with modern pedagogical approaches. The findings demonstrate that Sufi pedagogy serves as a rich methodological, spiritual, and educational resource for today's education system.*

Keywords: *Sufism, tasawwuf, Sufi pedagogy, Naqshbandiyya, Yasawiyya, spiritual education, perfection, ethics, pedagogical ideas, Eastern enlightenment.*

Kirish. Sharq ma'naviyati va ilm-fani ming yillar davomida inson kamoloti, axloqiy tarbiya va komil shaxsni voyaga yetkazish masalasiga alohida e'tibor qaratib kelgan. Ayniqsa, tasavvuf maktablari nafaqat diniy-falsafiy yo'nalish sifatida, balki axloqiy tarbiya tizimining asosiy manbalaridan biri sifatida shakllangan. Sufiy pedagogikasi Sharqning boy ma'naviy merosi, qadimiy ilmiy maktablari, mutasavvuflarning axloqiy-falsafiy qarashlari asosida rivojlangan bo'lib, u pedagogik tafakkurning yuksalishida muhim rol o'ynagan. Zamonaviy ta'lim tizimida ta'limning tarbiyaviy komponentini kuchaytirish, shaxsning ma'naviy-ruhiy kamolotiga e'tibor qaratish, ertangi avlodni komil inson sifatida tarbiyalash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Ana shu jarayonda sufiy pedagogikasining teran g'oyalarini ilmiy asosda o'rganish va amaliyotga tatbiq etish aktual ahamiyat kasb etadi. Bugungi globallashuv jarayonlari insonning nafaqat intellektual salohiyatini, balki ma'naviy yetukligini ta'minlashni ham talab etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, o'zbek xalqi tarixida muhim o'rin tutgan tasavvufiy ta'limot va uning pedagogik qarashlarini zamonaviy ta'lim jarayoniga tatbiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Tasavvuf nafaqat diniy-falsafiy yo'nalish, balki insonni komillikka yetaklaydigan tarbiyaviy maktab sifatida shakllangan. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Baho-

uddin Naqshband, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar sufiy pedagogikasining asoschilaridan hisoblanadi [1;220–222-b.].

Maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, hozirgi ta'lim tizimida yoshlar ongida milliy qadriyatlarni mustahkamlash, vatanparvarlik, bag'rikenglik, axloqiy poklik kabi fazilatlarni kamol toptirishda sufiy pedagogikasining tarbiyaviy qudratini o'rganish va uni pedagogik jarayonga integratsiya qilish zarurati oshib bormoqda. Ushbu maqolada sufiy pedagogikasining tarixi, tamoyillari, asosiy manbalari va zamonaviy ta'lim mazmunidagi o'rni tizimli ravishda tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Sufiy pedagogikasining ta'lim tizimidagi o'rnini aniqlashda Sharq mutafakkirlarining merosi, tasavvuf tarixiga oid risolalar, zamonaviy pedagogik adabiyotlar va ma'naviy tarbiya nazariyalarining o'rganilishi muhim ahamiyatga ega. Mazkur mavzu bo'yicha olib borilgan ilmiy-uslubiy tahlil shuni ko'rsatadiki, tasavvuf faqat diniy-falsafiy yo'nalish emas, balki mukammal tarbiyaviy tizim sifatida ham shakllangan [2;39–45-b.].

Sharq mutafakkirlari merosida pedagogik qarashlar. Eng qadimgi manbalardan biri bo'lgan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida axloqiy tarbiya, davlat boshqaruvi va komil inson fazilatlari keng yoritilgan bo'lib, muallif insonning kamolga yetishi uchun "adolat", "aqil", "aql-idrok" kabi tushunchalarni markaziy o'ringa qo'yadi [3;129–132-b.]. Tadqiqotchilar fikricha, ushbu asar o'rta asrlar Sharqidagi pedagogik fikr taraqqiyotining yetuk namunasi sifatida baholanadi.

Ahmad Yassaviyning "Hikmatlar"ida esa ruhiy poklanish, nafs bilan kurashish, sabr, tavozu', halollik kabi fazilatlarning tarbiyadagi ahamiyati ta'kidlanadi. Yassaviy maktabiga oid ilmiy izlanishlar A. Yuldashev, T.Ko'chqarovning g'oyalari yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda muhim metodik manba bo'la olishini ko'rsatadi.

Bahouddin Naqshbandning "Xilvat dar anjuman", "Yodkard", "Nafsni poklash" haqidagi risolalari ta'limda ichki intizom, mehnatsevarlik, ijtimoiy mas'uliyatga urg'u bergan. Naqshbandiya tariqatini o'rgangan tadqiqotchilar A.Zunnunov, J.Homidovning pedagogik qarashlari zamonaviy motivatsion yondashuvlar bilan uyg'un ekanini qayd etadilar [4;35–40-b.].

Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub", "Nasoyim ul-muhabbat", "Hayrat ul-abror" kabi asarlarida komil inson tarbiyasi, ustoz-shogird munosabatlari, ilmlilik, mehr-oqibat va axloqiy poklik g'oyalari chuqur falsafiy asoslangan. Navoiy merosini pedagogik nuqtai nazardan o'rgangan olimlar N.Komilov, A. Abdug'afforovning asarlarida tamoman tarbiyaviy model mujassam ekanini ta'kidlaydilar.

Tasavvuf falsafasining shakllanishi, rivojlanishi va pedagogik mazmunini o'rganuvchi asarlar [5;47–48-b.] shuni ko'rsatadiki, sufiylikda inson kamoloti markaziy g'oya bo'lib, unga erishish yo'lida tarbiya va o'z-o'zini nazorat qilish ilg'or metod sifatida qaralgan. Zamonaviy sharqshunoslar – Annemari Shimmel, Reziuddin ibn Fazlulloh, K.Hermann, M.Smithlarning tadqiqotlarida tasavvufning umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tarbiyaviy mohiyati ilmiy asosda ochib berilgan. Ularning fikricha, tasavvuf inson ruhiyatini tarbiyalashning eng qadimiy psixologik sistemalaridan biridir.

Zamonaviy pedagogik adabiyotlarda sufiy merosning o'rni. So'nggi yillarda pedagogika, psixologiya va ma'naviyatshunoslik sohalarida sufiy pedagogikasining o'rni bo'yicha qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan:

•S.Karimov, O.Hasanovlar ma'naviy tarbiya sistemasida sufiy tamoyillarining samaradorligini tahlil qilgan;

•R Jo'rayev komil inson tarbiyasida tasavvufning konseptual rolini o'rgangan;

•Sh.To'xtayev esa sufiylikning zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv bilan uyg'unligini ilmiy asoslagan.

Bu tadqiqotlarda sufiy pedagogikasining zamonaviy ta'limga integratsiya qilish imkoniyatlari, ya'ni, axloqiy tarbiya, ijtimoiy faollik, ma'naviy immunitetni shakllantirish jig'oyat muhimligi ta'kidlangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot quyidagi ilmiy usullar asosida olib borildi:

Tarixiy-tahliliy usul – sufiylik maktablarining shakllanishi, rivojlanishi va ta'limdagi ilmiy merosini o'rganish.

Qiyosiy-pedagogik usul – sufiy pedagogik tamoyillarini zamonaviy pedagogika tamoyillari bilan qiyoslash.

Kontent-tahlil – sufiy allomalar asarlaridan pedagogik g'oyalar ajratib olish.

Empirik kuzatuv va so'rovnoma metodi – ta'lim muassasalarida ma'naviy tarbiya jarayonining holatini o'rganish.

Pedagogik modellashtirish – sufiy pedagogik yondashuvlarini o'quv jarayoniga moslashtirish modeli yaratish.

Tadqiqot materiali sifatida tasavvuf ahli – Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Abdulla Ansoriy, Najmiddin Kubro kabi allomalar asarlari hamda zamonaviy pedagogik adabiyotlar tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Sufiy pedagogikasi islom falsafasi va ma'naviy ta'limotlari asosida shakllangan bo'lib, uning ildizlari VIII–IX asrlarga borib taqaladi. Dastlab, sufiylik tarkidunyochilik, ruhiy poklanish, nafsni tiyish g'oyalari asosida rivojlangan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan u keng qamrovli axloqiy, falsafiy va pedagogik tizim sifatida shakllandi. Tasavvufning bosh maqsadi – insonni ruhiy kamolotga, ma'naviy yetuklikka erishishga yo'naltirishdir. Sufiy pedagogikasining shakllanishiga Qur'on va Hadisda bayon qilingan axloqiy me'yorlar, mashhur mutasavvuflarning ta'limotlari, tariqatlarning tarbiyaviy tajribasi hamda axloqiy-irfoniy risolalar asos bo'lgan.

Erta sufiy maktablarda shakllangan tarbiyaviy tamoyillar sufiy pedagogikasining poydevorini tashkil etdi. Ibrohim Adham, Hasan Basriy, Bayazid Bistomiy, Junayd Bag'dodiy kabi mutasavvuflar tomonidan ilgari surilgan nafsni tiyish, halollik, poklik, sabr, tavozu, xizmat orqali komillikka erishish, murabbiy–murid munosabatlari kabi g'oyalar, keyinchalik, sufiy tarbiya maktabining nazariy-metodologik asosiga aylandi [6;134–135-b.]. Ushbu yondashuvlarda shaxsning ichki dunyosini tarbiyalash, o'zini nazorat qilish, axloqiy poklanish kabi holatlar markaziy o'rin egallagan.

Markaziy Osiyo hududida tasavvufning o'ziga xos pedagogik maktablari shakllanib, ular mintaqaning ma'naviy-ma'rifiy rivojiga ulkan ta'sir ko'rsatdi. Ahmad Yassaviy tomonidan asos solingan Yassaviya tariqati Turkiston mintaqasida tasavvufni milliy ruh bilan uyg'unlashtirdi. "Hikmatlar" asarida halol mehnat, odob-axloq, murshidga hurmat, muridning burchlari, sabr, diyonat kabi fazilatlar targ'ib qilinadi. Yassaviya tariqatida tarbiya jarayoni amaliy mehnat, shaxsiy namuna va ko'ngil pokligi orqali olib borilgan bo'lib, bu yondashuv bugungi zamonaviy pedagogikadagi faol o'qitish metodlari va tajribaga asoslangan ta'lim bilan mos keladi.

Naqshbandiya tariqati esa sufiylikning pedagogik mazmunini yana-da sayqal berdi. Bahouddin Naqshband tomonidan ilgari surilgan "Dil ba yor-u, dast ba kor" tamoyili ta'lim va tarbiyada ruhiy uyg'oqlik bilan birga amaliy mehnatning ham muhim ekanini ta'kidlaydi [7;50–55-b.]. Naqshbandiylar ta'limotida shaxsning ijtimoiy mas'uliyati, jamiyat hayotidagi faolligi, hushyorlik (hush dar dam), intizom, halollik, qalb pokligi kabi fazilatlar tarbiya markaziga qo'yilgan. Murabbiy va murid o'rtasidagi o'zaro ishonch, hurmat va mas'uliyat Naqshbandiya maktabining asosiy pedagogik munosabatlarini tashkil etadi.

Najmiddin Kubro boshchiligidagi Kubraviya tariqati tasavvufda psixologik yondashuvni rivojlantirdi. Kubro ta'limotida insonning ichki olamini tahlil qilish, ruhiy muvozanat, o'zini anglash jarayoni, o'z-o'zini tarbiyalash mexanizmlari chuqur o'rganilgan. Bu qarashlar hozirgi pedagogik psixologiya – xulq-atvor nazariyalari, emotsional intellekt, refleksiya jarayonlari bilan uyg'unlik kasb etadi. Shuningdek, Qodiriya tariqati ham tarbiyaviy meros qoldirgan. Abdulqodir Giloniy halollik, diyonat, sabr, saxovat, kamtarlik kabi fazilatlarni shaxs tarbiyasining asosiy elementi sifatida ko'rsatadi. Ushbu sifatlarga erishish yo'lida muridning muntazam o'zini nazorat qilishi, irodaviy chiniqishi, murabbiy tavsiyalariga amal qilishi talab etilgan.

Sufiy pedagogikasining umumiy mazmuni komil inson konsepsiyasiga asoslanadi. Komil inson aqliy, ruhiy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan yetuk shaxsdir. U bilimli, ma'rifatli, mas'uliyatli, bag'rikeng, halol, sabrli bo'lishi lozim. Bu talqin zamonaviy ta'limdagi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy rivojlanish, ijtimoiy-emotsional o'quv kabi yondashuvlar bilan mos keladi. Shuningdek, sufiy pedagogikasida axloqiy-ruhiy tarbiya yetakchi o'rinda turadi. O'quvchi o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish, boshqalarga yordam berish, yaxshilik qilish, pokiza bo'lish, odoblilik kabi fazilatlarni egallashi shaxs kamoloti uchun zarur deb qaraladi.

Murabbiy–murid munosabatlari sufiy pedagogikasining eng muhim unsurlaridan biridir. Murabbiy nafaqat bilim beruvchi, balki shaxsiy namuna bo'lgan tarbiyachi sifatida qaraladi. Shuning uchun ustozning shaxsiy fazilatlari, odobi, amal qilishi muridning tarbiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu yondashuv zamonaviy pedagogikada ustoz-shogird maktabi, mentorlik tizimi sifatida davom etmoqda. Sufiylikda o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni ham chuqur rivojlangan bo'lib, inson o'z nafsini yengish, ichki intizomni shakllantirish, ruhiy uyg'oqlikka erishish orqali kamol topadi. Mehnat tarbiyasi ham murakkab pedagogik jarayon hisoblanadi. Sufiylikda mehnat – halollik, sabr, chidamlilik, mas'uliyat, poklikni tarbiyalash vositasi sifatida qaralgan.

Zamonaviy ta'lim tizimida sufiy pedagogikasining o'rni tobora ortib bormoqda. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy rivoji, ruhiy salomatligi, ijtimoiy mas'uliyati, bag'rikengligi, insoniy fazilatlari muhim o'rin tutadi. Sufiy pedagogikasidagi halollik, mehr-shafqat, sabr, diyonat, ijtimoiy mas'uliyat, o'zini anglash, hushyorlik kabi tamoyillar zamonaviy tarbiyaviy jarayonni boyitadi. Shuningdek, sufiylikdagi ruhiy muvozanat, ichki osoyishtalikni topish, tafakkurni boshqarish, stressni yengish kabi psixologik texnikalar bugungi ta'limda o'quvchilarning ruhiy salomatligini mustahkamlash uchun juda muhim. Ustoz-shogird an'anasini qayta tiklash, mentorlik tizimini rivojlantirish, o'qituvchining shaxsiy namu-

nasiga asoslangan tarbiya metodlarini kuchaytirish ham sufiy pedagogikasining zamonaviy talqinini tashkil etadi.

Sufiy merosni dars jarayoniga tatbiq etish imkoniyatlari ham keng: ma'naviy-axloqiy suhbatlar, hikmatlardan foydalanish, ruhiy tarbiya mashg'ulotlari, mulohazaga asoslangan bahs-munozaralar, mas'uliyatni oshirishga qaratilgan topshiriqlar, shaxsiy rivojlanishga oid vazifalar – bularning barchasi o'quvchilarda komillik sifatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, sufiy pedagogikasi Sharq ta'limining eng muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning tamoyillari bugungi ta'lim tizimi uchun ham dolzarbligini yo'qotmagan. Tasavvufning ma'naviy-axloqiy g'oyalari, komillikka intilish konsepsiyasi, murabbiy-murid tizimi, o'z-o'zini tarbiyalash tamoyillari zamonaviy ta'lim jarayonida qo'llanishi mumkin bo'lgan pedagogik qadriyatlardir.

Sufiy pedagogikasining mazmuni: yoshlarning ma'naviy-ruhiy yetukligini oshirish; tarbiyaviy ishlarning samaradorligini kuchaytirish; shaxsni komillikka yetaklash; ta'lim jarayonini ma'naviy boyitish kabi yo'nalishlarda muhim ahamiyatga ega. Shu bois sufiy pedagogikasini chuqur ilmiy asosda o'rganish va uni ta'lim tizimiga tatbiq etish bugungi kunning dolzarb pedagogik vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Ubaydova V.E. Bahouddin Naqshband hunarmandlar piri va halollik piri timsoli. Yengil sanoatda fan-ta'lim va ishlab chiqarishning innovasion yechimlari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 1-tom, Buxoro, 21-aprel 2021, 220–222-betlar.

(2). Navro'zova G.N. Naqshbandiya–kamolot yo'li. Buxoro, «Fan» nashriyoti, 2007, 189-bet.

(3). Xurramova Mohidil Baxtiyorovna. Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik mahoratini oshirish jarayonida refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'ziga xos jihatlari. Research Focus, 2024, № 11, 129–132-betlar.

(4). Zaripova G.K. Milliy merosimizdagi pedagogik texnologiyaga oid g'oyalardan foydalanish. Uzluksiz ta'lim. Toshkent, 2005, 1-son, 35–40-betlar.

(5). Urazova M.B. Bo'lajak kasb ta'lim pedagogini loyihalash faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish. Pedagogika fan.bo'yicha doktorlik (DSc) diss. avtoreferati, T., 2015, 78-bet.

(6). Ubaydova V.E. Yengil sanoat yo'nalishdagi talabalarda interfaol metodlardan foydalanib Naqshbandiya ta'limotidagi halollik tushunchalarning singdirish. "Fan va jamiyat" ilmiy-uslubiy jurnali, Nukus, №2, 2022,134–136-betlar .

(7). Sharipov Sh.S. O'quvchilar kasbiy ijodkorligining uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti. Ped. fan. dokt. ....diss., T., 2012, 264-bet.

Tursunboyeva Mavjudaxon Shukurillo qizi (Andijon davlat Pedagogika instituti "Amaliy xorijiy tillar" kafedrasi o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi; shukurovnamavjuda@gmail.com)

TIL O'QITISHDA KREATIV QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA "GOOGLE CLASSROOM"NING O'RNI

Annotatsiya. *Mazkur maqolaning maqsadi til o'qitish jarayonida o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda Google Classroom platformasining pedagogik imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida umumta'lim maktablarida chet tilini o'qitish jarayoni, predmeti sifatida esa raqamli ta'lim muhiti orqali kreativ kompetensiyani shakllantirish metodlari belgilandi. Tadqiqot jarayonida tahlil, taqqoslash, pedagogik kuzatuv hamda tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, Google Classroom platformasidan maqsadli va tizimli foydalanish o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi, mustaqil va hamkorlikdagi faoliyatni faollashtiradi hamda kommunikativ kompetensiyaning samarali shakllanishiga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *kreativ qobiliyat, chet tilini o'qitish, raqamli platforma, Google Classroom, kommunikativ kompetensiya, innovatsion metodlar, interaktiv topshiriqlar, pedagogik tajriba.*

Турсунбоева Мавжудахон Шукурилло кизи (Андижанский государственный педагогический институт, преподаватель кафедры практических иностранных языков, независимый исследователь; E-mail: shukurovnamavjuda@gmail.com)

РОЛЬ GOOGLE CLASSROOM В РАЗВИТИИ КРЕАТИВНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ ЯЗЫКУ

Аннотация. *Целью данной статьи является определение педагогических возможностей платформы Google Classroom в развитии креативных способностей учащихся в процессе обучения иностранному языку. Объектом исследования выступает процесс обучения иностранному языку в общеобразовательной школе, предметом – методы формирования креативной компетенции в условиях цифровой образовательной среды. В ходе исследования применялись методы анализа, сопоставления, педагогического наблюдения и опытно-экспериментальной работы. Результаты показа-*